



## ODAM SAVDOSI JINOYATINING TASNIFI VA UNGA JINOIY JAVOBGARLIK

Berdiboyev Sardor

Shamshetova Zulkummar

*Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabaları*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Hozirgi kundagi dolzarb mavzularidan biri bo'lgan odam savdosiga qarshi kurashish, insonlarning huquq va erkinliklarini muhofazasini ta'minlash uchun Jinoyat kodeksining ahamiyati, odam savdosi jinoyatining jinoyat tarkibi va asosiy belgilari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Odam savdosi, inson huquqlari, erkinlik, Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiyasi, jinoyat tarkibi, jinoiy javobgarlik.

Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiyasi, "Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas, qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi"<sup>1</sup> deya e'tirof etilgan. Hozirgi kundagi, dolzarb mavzularidan biri bu Odam savdosi hisoblanib, bu turdag'i jinoyatni sodir etish va bu jinoyat natijasida jabr ko'rayotgan shaxslar yildan yilga ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasi<sup>2</sup>ga ko'ra, Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega deb ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Ammo, soddaligi tufayli odam savdosi jinoyatida jabrlanuvchi bo'lib qolayotgan shaxslar juda ko'p.

Bu turdag'i jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish maqsadida Xalqaro hamda Mahalliy tavsiyaviy va majburiy xususiyatlarga ega qonun hamda qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda. BMT tomonidan 1949-yildagi "Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya, 1956-yildagi "Qullik va qul savdosini, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to'g'risida"gi qo'shimcha konvensiyalar, 2000-yildagi "Odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonnomalar shu jumladandir. Bundan tashqari, odam savdosiga qarshi kurashish yuzasidan MDH davlatlar o'rtasida 2006-yil 8ta a'zo mamlakat doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashning 2007-2010 yillarga mo'ljallangan dasturini" qabul qilgan edi. Bugungi kunga kelib, qonunchiligidizda bir qancha o'zgarishlar, bundan tashqari, 2021-yil 19-fevralda kuchga kirgan, O'zbekiston Respublikasining Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni, bu turdag'i jinoyatni oldini olish uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi amaldagi Jinoyat kodeksiga ko'ra, Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar turkumiga kiruvchi 135-moddasida "Odam savdosi" jinoyati uchun javobgarlik keltirib o'tilgan.

<sup>1</sup> <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

<sup>2</sup> <https://constitution.uz/oz/clause/index#chapter10>



Amaldagi Jinoyat kodeksiga ko'ra, Odam savdosi jinoyatining bevosita obyekti shaxsning ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Odam savdosi – odamni olish-sotish yohud odamdan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

Odam sotish deganda, odamni shaxs tomonidan boshqa bir shaxsga pul, boshqa moddiy qimmatliklar, mulkiy xususiyatdagi xizmatlar, qarzdan voz kechishi yoki boshqalar sifatidagi xaq evaziga berilishi to'g'risidagi og'zaki yoki yozma kelishuvi tushuniladi.

Ushbu jinoyatning obyektiv tomoniga keladigan bo'lsak, odamni olish-sotish va odamdan foydalanish maqsadida, ularni:

Yollash – odamdan foydalanish maqsadida aldash yoki ishontirish yo'li bilan odamni biron bir faoliyat bilan shug'ullanishga jalg etishga qaratilgan faoliyat;

Tashish odamni olish sotish bitimi tuzilgan boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki u odamni foydalanish maqsadida foydalanadigan joga har qanday usulda yetkazib berish faoliyati;

Yashirish – jabrlanuvchini davlat organlaridan, hokimiyatdan, yaqin qarindoshlaridan har qanday joyda saqlash;

Topshirish – odamni boshqa shaxsga undan foydalanish maqsadida jismoniy tarzda berish;

Qabul qilish ya'ni odamni undan foydalanish maqsadida egallash va o'z tasarrufiga olish harakatlarida namoyon bo'ladi.

Odam savdosi jinoyati tufayli jabr ko'rgan fuqarolar, shu bilan birgalikdan ulardan boshqa maqsadlarda foydalanilganligi ham namoyon bo'lganligini keltirib o'tadi, Misol uchun, foxishabozlik, shaxvoniy yoki tibbiy ekspluatatsiya, qullik, erksizlik va boshqa.

Jinoyat kodeksining 135-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi formal bo'lib, jinoyat odamni olish-sotish bitimi tuzilgan paytdan yoki qonunning mazkur moddasida ko'rsatilgan boshqa qilmish sodir etilgan paytdan tugallangan hisoblanadi<sup>3</sup>.

Ushbu jinoyatning subyektiv tomoni aybning to'g'ri qasd shaklida ifodalanadi. Maqsadning mavjudligi, ya'ni, 135-moddada nazarda tutilgan yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilish bilan bog'liq qilmishlar sodir etilishida jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining zarur sharni odamni undan foydalanishga qaratilgan maqsad mavjudligidir. Bu jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida jinoyatdan ko'zlangan maqsad inobatga olinadi. Misol uchun, bu jinoyatni kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish maqsadida sodir etilgan bo'lsa 135-modda 2-qism "k" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qonun mazmuniga ko'ra, aldash yo'li bilan sodir etilgan olish-sotish, shuningdek, odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tariqasidagi odam savdosi Jinoyat kodeksining 135-moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olinadi va Jinoyat kodeksining 168-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi, JK 168-moddasi to'rtinchchi qismi "a" bandi bundan mustasno<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 24.11.2009 yildagi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 24.11.2009 yildagi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori



Jinoyatning subyekti esa 16 yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi. Bunda jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki uning yaqinlar ham bo'lishi mumkin.

Odam savdosi shaxs ekspluatatsiyasining boshlanishidan qat'I nazar, aybdor JK 135-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan harakatlardan birini sodir etgan paytdan boshlab, odamlarni olish-sotish, ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlari sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Inson huquqlar va umumjahon deklaratsiya

URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#chapter10>

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 24.11.2009-yildagi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori

URL: <https://lex.uz/ru/docs/-1616053>

4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi

URL: <https://lex.uz/acts/-111453>

5. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 2-Maxsus qism/M.Rustambayev. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –744b

6. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar.Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 bet.

7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar.Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 bet.

8. Утемуратова Ш. ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА БУ ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2014. – Т. 23. – №. 2. – С. 104-107. URL: <https://karsu.uz/wp-content/uploads/2019/04/%D0%B2%D0%BD%D1%81%D1%82%D0%BD%D0%BA-2014-2.pdf#page=102>

9. Кутыбаева, Е. Д., Утемуратова, С. Ш., Сапаров, Д. Т., Жарекеев, Б. Б., & Бабанов, Ш. А. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ СМЕНЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ. Интернаука, (37-1), 53-56.